



Zebiniso RASULOVA,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
Folklor bo'limi katta ilmiy xodimi

Osiyo xalqaro universiteti professori, PhD M.Ro'ziyeva taqrizi asosida

ON THE PUBLICATION OF UZBEK FOLK FAIRY TALES

Annotation

The article analyzes collections of Uzbek folk tales from different periods. In particular, information was provided on the preparation for publication of 100 volumes of "Monuments of Uzbek Folk Art" and the best examples of Uzbek fairy tales.

Keywords: Uzbek folklore, folklore archive, fairy tale, publication, collection, volume, myth, ritual.

ОБ ИЗДАНИИ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК

Аннотация

В статье анализируются сборники узбекских народных сказок разных периодов. В частности, была предоставлена информация о подготовке к изданию 100 томов «Памятников узбекского народного творчества» и лучших образцов узбекских сказок.

Ключевые слова: узбекский фольклор, фольклорный архив, сказка, издание, сборник, том, миф, обряд.

O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING NASHR ETILISHIGA DOIR

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek xalq ertak nashrlarining turli davrlardagi to'plamlari tahlilga tortilgan. Xususan, "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 jildligini nashrga tayyorlash hamda o'zbek ertaklarining eng sara namunalari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek folklorshunosligi, folklor arxivi, ertak, nashr, to'plam, jildlik, mif, marosim.

Kirish. O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor bo'limida "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 jildligi nashrga tayyorlanmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad o'zbek folklorining eng sara namunalari asar matni, ilmiy tadqiqot, ilmiy izohlar, ko'rsatkichlar, lug'atlar, nota yozuvlari, foto materiallar, rus va ingliz tillaridagi annotatsiyalar bilan birgalikda nashrga tayyorlab, chop ettirish orqali o'zbek folklorining mukammal majmuini yaratishdir.

Ushbu yuz jildlik uchun tayanch matnlar bazasini yaratish bilan bog'liq ilmiy izlanishlarda O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Hodi Zarif nomidagi Folklor arxivida (mazkur Folklor arxivi o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining barcha janrlariga oid boy faktik materiallarni o'zida jamlagan, shu yo'nalishdagi asosiy ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'lib kelmoqda) saqlanayotgan noyob materiallar asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

"O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 jildligi xalq og'zaki badiiy ijodining barcha janrlaridagi eng sara namunalarni o'z ichiga oladi. Ular qatoridan o'zbek xalq ertaklari ham o'rin olgan.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ertak o'zbek folklorining epik turiga mansub qadimiy janrlaridan biridir. Ularda hayotiy voqelik xayoliy uydirma, fantastika, badiiy to'qima asosida ifoda etadi. O'zbek folklorshunosligida xalq ertaklarini yozib olish, to'plab arxivlashtirish, nashr ettirish ishlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan va borada katta tajriba jamlangan. Hozirda bu ishlar davom etmoqda.

O'zbek tilida chop etilgan dastlabki ertak to'plami 1939-yil folklorshunos Buyuk Karimov tomonidan nashrga tayyorlangan bo'lib, 30 000 nusxada chop etilgan [18].

1960-1963-yillarda o'zbek xalq ertaklarining ikki jildligi nashrga tayyorlandi. Ushbu ikki jildlikda jami 196 ta ertak jamlangan [17].

O'zbek xalq ijodi ko'ptomligida "Suv qizi", "Oltin olma", "Gulpari" "Kulsa – gul, yig'lasa – dur", "Oltin beshik", "Luqmoni hakim", "Zumrad va Qimmat" kabi ertak

to'plamlari chop etilgan [12]. Bundan tashqari, o'zbek xalq ertaklari jamlangan ko'plab ommaviy to'plamlar nashr etilgan.

O'zbek ertakshunosligida janr tadqiqiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar yaratilgan va bugungi kunda ham qadimgi mif va marosimlarning ertak janri genezisida tutgan o'rni, xalq ertaklarining syujet qurilishi, asosiy motivlar, obrazlar tizimi va boshqa ko'plab masalalarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda [2, 4, 5, 8].

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib, ommalashib, sayqallanib kelgan, qadimiy epik an'analarni o'zida mujassam etgan ertaklarda xalqimizning mifologik tasavvurlari, e'tiqodiy qarashlari, turmush tarzi, o'tmish madaniyati, umuminsoniy ezgu xususiyatlar o'ziga xos tarzda badiiy ifoda etiladi. J.Asqarova nashr etilgan o'zbek xalq ertaklari to'plamlarini uch yo'nalishda tahlil qiladi:

Dastlab nashr etilgan ertak to'plamlarini o'rganish;
To'plamlarni bir ertakchi repertuariga asoslanganligini o'rganish;

Mavzulashtirilgan ertak to'plamlarini o'rganish [1].
Mustaqillik yillarida ertaklarni nashr etishga yangicha prinsiplar asosida yondashila boshlandi. Ilgari mavzu jihatdan aralash hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlari inobatga olinmagan ertak to'plamlari nashr qilingan bo'lsa, bugunga kelib bolalarning yosh bilan bog'liq xususiyatlari va ularda muayyan fazilatlarini tarbiyalash uchun ko'mak beradigan ertaklar bir kitobda jamlanib chop etilmoqda.

"Olim bola ertaklari", "Dono bola ertaklari" va "Jasur bola ertaklari" to'plamlari ham mavzulashtirilgan bo'lib, boladagi hislarni tarbiyalashga mo'ljallangan [13].

- **Tahlil va natijalar.** "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 jildligining sehrli ertaklardan tuziladigan jildlari uchun Folklor arxivida saqlanayotgan, aynan jonli jiro jarayonida yozib olingan noyob materiallar, hozirga qadar nashr ettirilgan ertaklarning badiiy jihatdan eng mukammal namunalari matniy tahlil asosida saralanib, o'zbek va jahon

folklorshunosligining nazariy konsepsiyalaridan kelib chiqqan holda ilmiy tavsiflash prinsiplariga ko'ra uch turga: "majoziy" (hayvonlar haqidagi) ertaklar, "sehrli" ertaklar va "maishiy" ertaklarga bo'lindi.

"O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 jildligining "Suv qizi" nomli 17-jildidan yurtimizning turli hududlaridan (Toshkent, Namangan, Andijon, Surxondaryo, Farg'ona, Qashqadaryo) yozib olingan 40 ta o'zbek xalq sehrli ertagi o'rin oldi. "Mohistara", "Vospiroxun", "Kambag'al qiz", "Hasan bilan Huriliqo", "Hotam", "Luqmon Hakim", "Ota vasiyati", "Suhrob va Mizrob", "Suv qizi", "G'ulombachcha", "Malikai Gulzor", "Erkenja", "Qiron aka", "Erjaloljon", "Besh qiz", "Mislabu", "Sherzod bilan Gulshod", "Vazirvachcha", "Kambag'al-qashshoq", "Quyosh yerining pahlavoni", "Savdogar o'g'li" singari bir qancha ertaklar ilgari ham turli kitob va to'plamlarda chop ettirilgan bo'lsa-da (shu o'rinda ustoz folklorshunos olimlarimizning katta mehnatlarini albatta e'tirof etishimiz lozim), ish jarayonida bu ertaklar matni Folklor arxivida saqlanayotgan qo'lyozmalar, ya'ni ertakchilardan bevosita jonli ijro jarayonida yozib olingan qo'lyozma namunalari yana bir bor ko'zdan o'tkazildi, "Sitoraxon", "Negiz uzuk", "Kampirning uch o'g'li", "To'ti labbay o'ti", "Sayyod", "Morabkor", "Sultonxon", "Po'latxon", "Guliqahqah bilan Gulnavor", "Tut qoqqan chol bilan qizlari", "Bulg'ur biya", "Abdulla", "Dilsiz qahqah" kabi ertaklar esa ilk bor nashr etildi.

Ertaklar asrlar osha og'izdan-og'izga o'tib, ijro jarayonida doimiy badiiy jihatdan takomillashib, ularning turli variantlari yuzaga keladi. Ertakchi qaysi hududda yashasa, ijro jarayonida o'zi yashab turgan joyga xos urf-odatlar, turmush tarzi, o'z orzulari bilan bog'liq ma'lumotlar asosida ertakni boyitishga harakat qiladi.

Qadimdan xalqimiz orasida o'tkazilgan marosim, amal qilingan urf-odat, an'ana va udumlar o'zida chuqur ma'no-mazmun kasb etgan. Ularning badiiy talqini esa xalq og'zaki ijodi namunalari qatiga singib ketgan. Sovchilik udumi ham shular jumlasidandir. Nashrga tayyorlangan "Suv qizi" jildidan o'rin olgan "Erkenja", "Negiz uzuk", "Guluyar bilan Qalandar", kabi ertaklarda ham bunga guvoh bo'lamiz.

Azaldan xalqimiz kelin tanlashga alohida e'tibor bergan. Chunki, kelin har bir oilaning davomchisi bo'lgan zurriyodni dunyoga keltirgan. Dunyoga kelgan farzand tarbiyasi esa asosan onalar zimmasiga yuklangan. Xalqimiz orasidagi "Onasini ko'r, qizini ol" maqoli ham bejjiz aytilmagan. Yaxshi oilada to'g'ri tarbiya topgan qizlarning xaridori ko'p bo'lgan va shu xonadonga ko'p sovchilar kelgan. Bu hayotiy holat xalq ertaklarida ham badiiy aks ettirilgan. Masalan, "Quyosh yerining pahlavoni" ertagida "Bir vaqtda bir yamoqchi bor ekan. Turmushini zo'rg'a o'tkazar ekan. Bisotida ishongan, suyan gan bir qizi bor ekan. Aqlli, chiroyli qiz ekan. Otasi kambag'al yamoqchi bo'lishiga qaramay, katta boylardan, beklardan sovchilar kelar ekan", [14] – deya hikoya qilinadi.

O'zbekistonning janubiy hududlaridagi nomoddiy madaniyat tarixi bilan qiziqqan olimlarimiz "Vohada sovchilar "kichik" va "katta" sovchilarga bo'linadi. Kichik sovchilikka, asosan, yigitning onasi o'z yoniga eng yaqin ayol qarindoshlari orasidan so'zamoli, gapga chechanini tanlab, birga borgan. Udumga muvofiq sovchilikka uch marta borilgan. Albatta, sovchilar "eshigingizni supurishga keldik", "eshigingizga qulchilikka keldik" kabi so'zlarni aytib, so'ngra maqsadga o'tishgan. Qiz tomon rozilik bildirsa, sovchilar oldiga yog'li, tansiq taomlar qo'yishgan, "qarindoshlar bilan maslahatlashaylik", yana bir kelasizlar" deb javob qaytarilgan. Agarda "Hali qizimiz yosh", "Qizimizning boshi bog'langan", "Boshqa tomonlarni ham ko'ringizlar" deyilsa, bu gaplar rad etish alomatini bildirgan. Kichik sovchilar qiz tomondan rozilik olganlaridan keyin "katta sovchilar", ya'ni yigitning tog'asi, qishloqning so'zamol, uvali-juvali, hurmatli kishisi

bilan birga borgan [16]. Haqiqatdan ham, sovchilar qiz uyiga kelgach, gapni sovchilarga xos odatiy, an'anaviy iboralar bilan boshlashadi. Masalan, Buxoro viloyati Qorako'l tumanida "Sovchi odatda: "Qulchilikka keldik", "Eshigingizni supurishga keldik", "Hovlingizda bir gul o'sayotgan ekan" kabi an'anaviy ifodalar bilan maqsadini bayon qiladi. Qiz tomon rozi bo'lganda ham, mutlaq qarshi bo'lganda ham birdaniga rad javobi bermaydi. Bunda ham an'anaviy: "Qizimiz hali yosh", "Amma, tog'alari bor. Qarindoshlar bilan o'ylashib ko'raylik", "To'yga taraddudimiz yo'q edi" kabi gaplar bilan javob beriladi" [19].

Sovchilar qo'llaydigan an'anaviy ifodalarga ertaklarda ham duch kelamiz. Masalan jildagi "Erkenja" nomli ertakda: "Qushbon ta'zim qilib:

– Bobo, shunday, elchi bo'lib keldik. Bizning shohimizning uch o'g'li bor edi, sizda uchta cho'richoq bor ekan. Shu uchovini podshoning uch o'g'liga bersangiz. Quda bo'lib yursak, deb kelgan edik, – debdi.

Chol aytibdi:

– Kelganlaring juda yaxshi. Lekin bizda ham aka bor, uka bor, qavm-qarindosh bor; o'shalar bilan bir maslahat qilib ko'raylik, "kengashli to'y tarqamas", berar-bermasligimizni so'ng aytarmiz" [14], – tarzida hikoya qilinadi.

Qadimda sovchilar tong saharda kelinlikka tanlangan qizning hovlisi oldini supurib ketishgan. Bundan xabar topgan qizning uyidagilar: "Demak, bugun sovchi kelar ekan-da", – deb, ularni kutib olishga tayyorgarlik ko'rishgan. Ertaklarda ham sovchilikka borgan chol yoki kampir, albatta, podshoning darvozasi oldini supura boshlaydi. Masalan, "Negiz uzuk" nomli ertakda quyidagicha hikoya qilinadi:

– Ey ona, siz ertaga sovchilikka boring, – deb qo'yarda-qo'ymasdan kampirni cho'loq eshakka mindirib sovchilikka yuboribdi. Odatda sovchilar borganda, avvalo podshoning eshigini supurib qaytib kelar ekanlar. Kampir ham borib podshoning eshigini supurib qaytib kelibdi. Podshoni odamlari qarasa, eshik oldi supurilgan ekan. Ular bu xabarni podshoga yetkazibdilar. Podsho bu ishni kim qilganligini surishtiribdi. Qarashsa, bir kampir ekan. Podsho surishtirib o'tirmasdan, odamlariga uni shahar tashqarisiga olib borib tashlashlarini buyuribdi. Podsho odamlari kampirni urib-urib, qovurg'alarini sindirib, bir jarga tepib yuboribdilar. Bu yoqda o'g'li qarab turgan ekan. U duo o'qib, uzukka qarab:

– Onam ilgarigi holiga kelsin, – debdi. O'g'li onasidan avval uyiga qaytib kelibdi. Onasi tuzalib, cho'loq eshakka minib, eshikdan kirib kelibdi. Bola:

– Ha, ona, podsho nima dedi? – deb so'rabdi. Onasi:

– Bolam, podsho hech narsa so'ramasdan odamlariga meni olib borib tashlashni buyurdi. Ular meni urib-urib, qovurg'alarimni sindirgan edilar. Uyg qanday qilib tuzalib kelib qolganimni bilmayman, – debdi. O'g'li:

– Ona, ertaga yana sovchilikka boring, – debdi. Kampirning "Qo'y bolam, endi bormayman" deganiga qo'ymasdan yana sovchilikka yuboribdi. Kampir yana cho'loq eshagini minib, sovchilikka boribdi. Eshikni supurib, qaytib kelibdi. Podsho chaqirtirib ko'rsa, yana o'sha kechagi kampir" [14].

Mazkur to'plamdagi o'zbek xalq sehrli ertaklarida jonli mavjudot sifatidagi, g'aroyib o'simlik shaklidagi, g'aroyib buyumlar singari, mifologik obrazlar, iste'mol qilinadigan g'aroyib narsalar vositasidagi, sehrli (epik) makon, sehrli so'zning amal qilishi misolidagi g'aroyibliklar kuzatiladi. Qahramonlarning "o'zga olam"dagi ajoyib sarguzashtlari bilan bog'liq voqealar qiziqarli tarzda bayon etiladi.

M.Jo'raev "Ertak janriga oid folklor asarlarini o'z san'ati va ijro mahoratiga ega bo'lgan istalgan kishi tomonidan aytilishi mumkin bo'lsa-da (masalan, ota-onalar, enagalarvah.k.), odatda, xalq ertaklarining an'anaviy syujetlarini yaxshi biladigan, hikoyago'ylik iqtidorini puxta

egallagan, professional tayyorgarlikka ega bo'lgan folklor ijrochisi – ertakchilar tomonidan ijro etilishi, o'zbek xalq ertaklarini to'plash maqsadida olib borilgan ilmiy izlanishlar va folklor ekspeditsiyalari natijasida professional ertakchilarning quyidagi: professional ertakchilar, hajvchi ertakchilar, qissaxon-ertakchilar, ertakchi-baxshilar tiplari aniqlanganli haqida yozadi [6].

- **Xulosa va takliflar.** Ularni bizgacha yetib kelishida xalq ertaklarini maromiga yetkazib ijro etgan ana shunday ertakchilarning, shu asarlarni ulardan jonli ijro jarayonida

yoziб olgan folklorshunos olimlar va havaskor to'plovchilarning xizmatlari beqiyos.

Ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan bebaho og'zaki ijod durdonalarini tadqiq va targ'ib qilishni izchil davom ettirish, ularni kitobxonlarga, yosh avlodga, kelajak avlodlarga yetkazib berish xayrli ishdir. Bu asarlarni o'qish, o'rganish kishini o'zligini anglashga, ezgu amallar bilan yurtiga, xalqiga xizmat qilishga chorlaydi.

Ertaklarning o'ziga xos badiiy xususiyatlarini tadqiq qilish xalqimiz badiiy tafakkuri qonuniyatlarini teranroq anglashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Асқарова Ж. Ўзбек халқ эртақчилиги ва эртақ нашрларининг киёсий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 138 б.
2. Афзалов М. Ўзбек халқ эртақлари ҳақида. – Тошкент: Фан, 1964. – 120 б.;
3. Гулшари. Наманган эртақлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1969. – 376 б.
4. Жалолов Ғ. Ўзбек халқ эртақлари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1976. – 272 б.;
5. Жўраев М. Тирноғи тилла киз. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 18 жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 20. – Б.5.
6. Жўраев М. Ўзбек халқ эртақларида “сеҳрли” рақамлар. – Тошкент: Фан, 1991. – 152 б.;
7. Зумрад ва Қиммат. Ўзбек халқ эртақлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1990. – 320 б.
8. Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 252 б.;
9. Кулса – гул, йиғласа дур. Ўзбек халқ эртақлари / Нашрга тайёрловчилар: З.Хусаинова, Б.Саримсоқов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – 304 б.
10. Луқмони ҳаким. Ўзбек халқ эртақлари / Нашрга тайёрловчилар: Т.Мирзаев, З.Хусаинова. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1990. – 224 б.
11. Олтин бешик. Эртақлар / Нашрга тайёрловчилар: М.Афзалов, К.Имомов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1985. – 256 б.
12. Олтин олма. Ўзбек халқ эртақлари / Нашрга тайёрловчилар: М.Афзалов, З.Хусаинова, Т.Ашуров. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1966. – 360 б.
13. “Олим бола эртақлари”, “Доно бола эртақлари”, “Жасур бола эртақлари”. – Тошкент: Академнашр, 2018.
14. Сув кизи. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 17 жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2020. – Б.262.
15. Сув кизи. Ўзбек халқ эртақлари / Нашрга тайёрловчилар: М.Афзалов, З.Хусаинова, Н.Сабуrow. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1966. – 328 б.
16. Турсунов.С.Н, Пардаев Т.Р, Турсунов А.С, Тоғаева М.Р. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида номоддий маданият тарихи. – Тошкент: “Мухаррир”, 2012. – Б.110.
17. Ўзбек халқ эртақлари. Икки жилдлик / Тузувчилар: М..Афзалов, Ҳ.Расулов, З.Хусаинова. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1960-1963. 2 жилдлик. – 544 б.
18. Ўзбек халқ эртақлари. Тўпловчи Б.Каримий. – Тошкент: 1939. – Б. 12.
19. Қорақўл никоҳ тўйларининг биринчи босқичи маросимлари // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. Тошкент, 2006. – Б.95.
20. Эгамов Х. Совет Шарқи туркий халқлари эртақчилиқ анъаналари алоқалари тарихидан очерклар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 344 б.;